



O'ZBEK TILIDA TARIXIY SO'ZLARNING LUG'AT TARKIBIDAGI VA ZAMONAVIY TILDAGI O'RNI

Oqmirzayeva Umida Normurod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15708888>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 21-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

*Leksik istorizm, arxaizm, til
lug'at tizimi, leksemaning ifoda
va mazmun plani.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek tilida tarixiy va arxaik
so'zlarning til qatlamidagi hamda zamonaviy til
tizimidagi o'rni haqida so'z boradi. Ularga badiiy
asarlardan misollar keltirilib, tahlil qilingan.*

Til jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Har bir xalqning tili o'z tarixiga, madaniyatiga va tafakkuriga uyg'un holda shakllanadi. Vaqt o'tishi bilan tildagi so'zlar tizimi ham o'zgaradi: ayrim so'zlar eskiradi, yangi so'zlar esa yuzaga keladi. Shu bois, har qanday til taraqqiyoti mobaynida arxaik va zamonaviy leksik qatlamlar shakllanadi. Tarixiy va arxaik so'zlar o'zbek tilining boy madaniy merosini ifodalaydi, ammo ularning zamonaviy til tizimidagi roli kichrayadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Leksik istorizmlar o'tmish voqeligi bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Ular "tarixiy so'zlar" deb ham ataladi. O'zbekiston buyuk tarixga ega bo'lishi bilan bir qatorda boshidan turli xonlik va boshqaruvlarni kechirgan. Shubhasiz, turli davrda turli so'zlar va atamalardan foydalanilgan. Lekin bugungi kunda ushbu atamalar o'z ma'no va shaklini butunlay yo'qotgan. Aynan bu so'zlar istorizmlar sanaladi. Masalan: tanob – "Oldin ishlatilgan o'lchov birligi. 17-asrda arab filologiyasida tanob so'zini qirq metrlik arqon sifatida bilishgan, O'rta Osiyo xonliklarida esa ushbu birlik oltmish gazdan oshmaydigan o'lchov birligidir". "Bog'ning sathini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob mo'ljalladi". (Oybek. "Tanlangan asarlar"). Xalifa – "arabcha – o'rinbosar, noib degan ma'nolarni anglatadi. Tarixda musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshlig'i sifatida faoliyat yuritgan shaxs". "Musulmonlar xalifasi Xorun ar-Rashid xalq hayotini o'rganish uchun faqirona aylanib yursa, bir qassob qo'yning bahosini so'rabdi". ("Xalifa, qassob, dono bolalar va odil hukm" hikoyasidan). Namunalardan shu narsa a'yonki, bugungi kunda tanob hamda xalifa leksemaning ifoda plani (nomemasi) ham mazmun plani (sememasi) ham iste'moldan chiqib ketgan. Demak, istorizmlarning muhim xususiyati shakl hamda mazmunning birgalikda yo'qolishidir. Ammo tarixiy so'zlarni bugungi kunda badiiy adabiyotda, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda uchratish mumkin. Ular uslubiy bo'yoqdorlikni oshirish, reallikni ta'minlash maqsadida badiiy asarlardan joy olgan. "Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan

suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz – ya’ni ma’naviy otam”. (A.Qodiriy “O’tgan kunlar”) Otaliq – “Kavkaz xalqlari, keltlar, arablar va boshqalarda badavlat xonadon egalari tomonidan farzandlarini tarbiyalash uchun vassallar yoki xizmatkorlarga berish” kabi.

Natijalar

Istorizm va arxaizmlar tilning lug’at qatlamining boyishiga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy asarlarda so’z sehri, so’zning kuchini yorqin aks ettiradi. Bundan tashqari, Ular tarixiy davr tilini, turmush tarzini, siyosiy tuzumini, ijtimoiy tuzilishini anglashda muhim vosita hisoblanadi. Adabiy asarlarda, ayniqsa, tarixiy roman, dostonida muayyan davr ruhini berishda istorizmlar stilistik mohiyat kasb etadi. Ba’zida istorizmlar yangi so’zlarning yaratilishiga asos bo’lishi mumkin, masalan, beklilik, xonlik, prezident.

Eskirgan so’z terminiga keladigan bo’lsak, uning ahamiyati hozirgi kunga kelib juda ham muhim bo’lib kelmoqda. Eskirgan lug’at esa xalq tarixi haqidagi bilimlarni shakllantirish, uni milliy kelib chiqishi bilan tanishtirish uchun qimmatli materialdir. Bu bizni tarix bilan bog’laydigan aniq iplardir. Uni o’rganish ajdodlarning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlarni qayta tiklash, xalqning turmush tarzi haqida bilim olishga imkon beradi. Eskirgan so’zlar – bu nutqni diversifikatsiya qilish, unga hissiyot qo’shish, muallifning voqealikka munosabatini ifodalash imkonini beruvchi vositadir.

Muhokama

Tarixiy va arxaik so’zlarning iste’moldan chiqish sabablari. Tarixiy va arxaik so’zlarning iste’moldan chiqishiga bir nechta asosiy sabablar mavjud:

A) Ijtimoiy va siyosiy o’zgarishlar: Agar jamiyatda yangi siyosiy tizimlar vujudga kelsa, ba’zi so’zlar o’zgarib boshlaydi. Masalan, o’tmishda "xon" (hokim) so’zi ishlatilgan bo’lsa, zamonaviy davrda uning o’rnini "hokim" yoki "prezident" so’zlari egallagan. "Qozikalon" so’zi esa o’z davrida ya’ni 20-asr boshlarida siqib chiqarildi.

B) Texnologik taraqqiyot: Yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlar yangi so’zlarning kirib kelishiga olib keladi. Eski davrda ishlatilgan "mushk" so’zi o’rniga hozirda "plastik", "truba" kabi so’zlar ishlatilmoqda.

Ba’zi eski so’zlar o’zining ma’nosini yoki maqsadini yo’qotib, zamonaviy so’zlar bilan almashtirilgan. Misol uchun, "xazinador" (boy) so’zi hozirgi kunda "mol-mulk" yoki "boy" bilan almashtirilgan. Tarixiy va arxaik so’zlarning iste’moldan chiqishiga doir ko’plab misollarni keltirish mumkin:

"**Taxt**" (hokimiyat) – "Taxt" so’zi eski davrda hukmdorlikni ifodalagan. Hozirda "hokimiyat", "yosh o’rin" kabi so’zlar ishlatilmoqda. Ushbu so’z zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tizimda o’z o’rnini yo’qotgan.

"**Xazinador**" (boy) – Bu so’z o’tmishda mol-mulk egasini ifodalagan. Zamonaviy o’zbek tilida "boy" yoki "mol-mulk" kabi so’zlar ishlatiladi.

"**Jalld**" (qattiq hukm chiqaruvchi) – O’tmishda bu so’z odamni jazolashda ishlatilgan bo’lsa, hozirgi kunda esa "zo’ravon" yoki "qattiq hukm chiqaruvchi" kabi so’zlar ishlatiladi.

"**Qozi**" Qozi so’zi o’zbek tilida tarixiy va diniy ma’nolarga ega bo’lib, asosan, "sudya" yoki "hokim" ma’nosida ishlatilgan. U musulmonlar jamoasida adolatni ta’minlash va qonunlarni bajarish uchun tayinlangan diniy vakilni bildiradi. Qozi shuningdek, "islom sudyasi" yoki "islomiy sud hukmdori" sifatida ham tanilgan. Tarixda, ayniqsa, o’rta asrlarda, qozi adolatni amalga oshirish va diniy, fuqarolik ishlarini boshqarish uchun mas’ul bo’lgan. Bugungi kunda bu so’zning ishlatilishi kamroq uchraydi, lekin o’sha davrda qozi o’z hukm qilish huquqi bilan

yuqori ahamiyatga ega bo'lgan shaxs bo'lgan. Lekin, hozirgi kunda ba'zi bir eskirgan so'zlarning o'rnini bosuvchi sinonimlari yo'q va biz ularga hech qanday ehtiyoj ham sezmaymiz. Ular tarixiy so'zlar deb atalib, turli xil tarixiy manbalarda qo'llaniladi, xolos. Masalan: jallod, yasovul, ellikboshi, qamal va boshqalar. Bilamizki, hozirda ushbu so'zlardan deyarli og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham foydalanmaymiz. Lekin biz biror bir tarixiy jarayon haqida gapirmoqchi bo'lganimizda yoki biror bir tarixga oid asarni tahlil qilganimizda, undagi voqealikni tasvirlash uchun biz bu so'zlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Biz bunday tarixiy so'zlarni ko'proq Navoiy, Lutfiy, Bobur va boshqa tarixiy siymolar asarlarida va shuningdek, Tolstoy, Dostoyevskiy va Mayakovskiy asarlarida uchratishimiz mumkin. Biz ularni to'g'ri tushunishimiz uchun lug'atlarga murojat qilib, ularning ma'nosini bilib olishimiz kerak. Bu esa bizga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin, albatta. Shuning uchun ham bizning kitob tarjimonlarimiz bu muammoga kamroq duch kelishimiz uchun o'zlari bu so'zlarning ma'nolarini tayyor qilib matnning past qismiga joylashtirib qo'yishyapti. Bu esa kitobxonga o'qiyotgan kitobining mavzusini yana ham atroflicha tushunishga yordam beradi. Masalan, Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini o'qiganimizda juda ham ko'p tarixiy so'zlarga duch kelamiz. Lekin ayrim kitobxonlar bu kitobni tushunishga qiynaladi. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, kitobda biz bilmagan tarixiy so'zlar o'zining ma'nosi bilan birgalikda berilgan. Ayni paytda, ushbu asardagi tarixiy so'zlarni tahlil qilgan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi Baxtiyorova Rayxonaning "Yulduzli Tunlar" romanida tarixiy so'zlar etimologiyasi" mavzusidagi maqolasini misol qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. U ushbu maqolasida asardagi tarixiy so'zlarga misollar keltirgan. Masalan, yog'iy – yov, raqib, dushman degan ma'nolarni anglatib, asarda ham xuddi shu ma'nolarda qo'llanilgan. Tarh – arabchadan olingan bo'lib qurilish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi degan ma'nolarni anglatadi. Asarda ham qurilish uchun tayyorlangan bino ma'nosida qo'llanilgan. Yana shunga o'xshash tarixiy so'zlar ushbu asarda juda ham ko'p. Shuningdek, kitobning yana bir ijobiy tomoni tarixiy shaxslarga ham qisqacha ta'rif berilib ketganidir. Chunki biz har bir tarixiy shaxsni ham taniyvermaymiz. Shu kabi asarlar yana talaygina topiladi. Lekin bu degani biz tarixiy so'zlarni bemalol qo'llay olamiz degani emas. Ularni faqat ma'lum bir maqsad doirasida va tarixiy voqealik haqida gapirganimizda foydalanamiz.

Tarixiy va arxaik so'zlar zamonaviy tilga ko'plab ta'sirlar ko'rsatgan. Ular tildagi boylikni, madaniyatni va tarixni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu so'zlarni o'rgatish va saqlash tilning rivojlanishi uchun muhimdir. Masalan, adabiyotda, she'rlarda yoki tarixiy asarlarda "xazinador", "sulton", "taxt" kabi so'zlar ishlatilishi tilni boyitadi va uning tarixiy ma'nosini saqlaydi.

Xulosa

Tarixiy so'zlar har bir millat uchun birdek zarur va muhim hisoblanadi. Negaki, har qanday yangi kirib kelgan so'z bo'ladimi yoki tarixiy so'zmi bu o'sha millatning tarraqiyotini, rivojlanish bosqichlarini va shuningdek, qanday tarixga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Tarixiy va arxaik so'zlarni saqlash, zamonaviy til tizimiga moslashtirish, o'zbek tilining tarixiy merosini asrab-avaylashga yordam beradi. Tilni o'rganayotgan yosh avlodga bu so'zlarni tushuntirish va ularni amaliyotda ishlatish tilning madaniyati va boyligini saqlab qolishga yordam beradi. O'zbek tilida tarixiy va arxaik so'zlar tilda rivojlanish va o'zgarish jarayonini aks ettiradi. Ularning iste'moldan chiqishi tilning yangi shakllariga o'tishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarixiy va arxaik so'zlar tilning boyligini va madaniy merosini saqlashda katta

ahamiyatga ega. Shunday qilib, tilshunoslikda bu soʻzlarni saqlash va ularni zamonaviy til tizimiga kiritish, oʻzbek tilining rivojlanishining muhim bir qismi boʻlib qoladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. M.T.Irsiqulov, "Tilshunoslikka kirish". Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2009.
2. Pirumqul qodirov, "Yulduzli tunlar". 3. R.Baxtiyorova, "Yulduzli tunlar romanida tarixiy soʻzlar etimologiyasi". Kinds of popular scientific articles. 2022.
4. Study.com.academy.
5. Toshmuhammedov, S. (2012). Oʻzbek tilshunosligi tarixi - Oʻzbek tilshunosligining tarixiy taraqqiyoti va oʻzbek tiliga oid ilmiy izlanishlar. 6. Sharipov, A. (1970). Oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyoti - Oʻzbek tilining tarixiy rivoji va uning eski va yangi shakllarini oʻrgangan asar.

